

ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR ESHITUV IDROKINI KORREKSION MASHG'ULOTLARDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Teshaboyeva Feruza Raximovna

Qo'qon Davlat Universiteti Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti,(PhD)

roza3052458@mail.ru

Nurova Shaxruza Davronbek qizi

Surdopedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zaif eshituvchi bolalar eshituv idrokini korreksion mashg'ulotlarda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan. Eshituv idrokini rivojlantirish nafaqat kommunikatsiya, balki o'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Maqolada Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarda pedagoglarning asosiy vazifasi ko'rsatilib, bolalarni eshituv idrokini rivojlantirishda yordamchi texnologiyalar va interaktiv o'quv tizimlaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: zaif eshituvchi bolalar, eshituv idrokini rivojlantirish, korreksion-pedagogik ishlar, eshitish nuqsonlari, ta'lim jarayoni, ijtimoiy integratsiya, kognitiv treninglar, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar.

Аннотация:

В данной статье рассмотрены педагогические условия развития слухового восприятия слабослышащих детей на коррекционном обучении. Утверждается, что развитие слухового восприятия важно не только для общения, но и для повышения самосознания и уверенности в себе. В статье показана основная задача педагогов на коррекционно-педагогических занятиях с детьми с нарушениями слуха, освещены вопросы использования вспомогательных технологий и интерактивных обучающих систем в развитии слухового восприятия детей.

Ключевые слова: слабослышащие дети, развитие слухового восприятия, коррекционно-педагогическая работа, нарушения слуха, образовательный процесс, социальная интеграция, познавательные тренинги, инновационные технологии, интерактивные методы.

Annotation:

This article reflects on the pedagogical conditions for the development of hearing perception of weak hearing children in correctional training. It has been argued that the development of auditory perception is important not only in communication, but also in increasing self-awareness and self-confidence. The article shows the main task of educators in correctional and pedagogical classes with weak hearing children, and covers the issues of using auxiliary technologies and interactive learning systems in the development of auditory perception of children.

Keywords: weak hearing children, development of auditory perception, Correctional-pedagogical work, hearing impairment, educational process, social integration, cognitive training, innovative technologies, interactive methods.

Zaif eshituvchi bollarning eshituv idrokini rivojlantirish surdopedagogikaning asosiy masalalaridan biridir, chunki eshituv idroki nafaqat eshitish va tushunish balki, nutqning normal rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv va ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omildir. Inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim-tarbiya berishning asosiy vositasi bu nutq hisoblanadi. O'quvchilarning barcha ko'nikmalari ko'ruv-eshituv idroki orqali shakllantiriladi. Zaif eshituvchilikda esa eshituv idroki to'g'ri korreksiyalanmagan holatlarda nutqni to'g'ri idrok etish va tushunishda birqator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunday sharoitda esa zaif eshituvchi bolalar tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada qiyinchiliklarga duch kelishadi, shaxsiyat shakllanishi va umumiy ko'nikmalarning hosil bo'lishi ularda normal rivojlanayotgan tengdoshlar kabi sodir bo'lmaydi. O'rganilayotgan ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Bu holat esa L.S.Vigotskiy eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasini pedagogika sohasining eng murakkab va qiziqarli tarmog'i sifatida e'tirof etishining yaqqol namunasi bo'ladi¹.

Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarda pedagoglarning asosiy vazifasi-bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish, nutq va muloqot qobiliyatlarini yaxshilash, ijtimoiylashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdir. Zaif eshituvchi bolalarni eshituv idrokini rivojlantirishda yordamchi texnologiyalar va interaktiv o'quv tizimlaridan foydalanish, eshituv idrokiga tayangan holatda bolalarning to'g'ri muloqot qilish, o'qish va yozish ko'nikmalarini oshirishda samarali vosita bo'ladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolalar bilan samarali muloqot qilish va ularning ruhiy holatini hisobga olish juda muhimdir. Bu, nafaqat ularning akademik, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Zaif eshituvchi bolalar uchun ta'lim va tarbiya tizimi ular uchun qulay

¹ X.J.Kalbaeva. Maktabgacha surdopedagogika: Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi. Oliy ta'lim muassasa talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2007. B.-2.

va samarali bo'lishi kerak. Faqatgina pedagoglar, ota-onalar va ijtimoiy muhitning hamkorligi orqali bu bolalar o'z potentsialini to'liq amalga oshirishlari mumkin.

Birlamchi nuqson bu o'rinda- eshitishning buzilishi ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko'ra chaqaloqlik, maktabgacha bo'lgan davrda o'xshash holatda namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar strukturasi o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir². Eshitishning pasayish darajasi va qo'shimcha nuqsonlarning bor yoki yo'qligidan kelib chiqqan holatda tashkillangan pedagogik shart-sharoitlar tuzatish ishlarining samaradorligini belgilaydi.

Korreksion-pedagogik jarayonni to'g'ri tashkillashtirish, eshitishning pasayishi bilan bog'liq umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun maktabgacha yoshdashi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilish zarur. L.A.Venger, D.B.Elkonin, F.Alimxodjaeva, U.Fayzieva, N.Bekmuratov, X.Gaynutdinovlarining ilmiy tadqiqotlari eshitish qobiliyati pasaygan va me'yorda eshituvchi bolalar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilashga, korreksion tarbiyaviy ish metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi³.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – nutqni rivojlantirish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofdagilarning ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: "Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim" deb ta'kidlaydi⁴.

Zaif eshituvchi bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish uchun korreksion mashg'ulotlarda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

1. Individual yondashuv: Har bir bolaning eshitish darajasi, nutq rivojlanishi va psixologik holati inobatga olinib, individual reja asosida mashg'ulotlar tashkil etilishi kerak. Bu yondashuv bolaning ehtiyojlariga mos metodlarni tanlashga yordam beradi.
2. Vizual va taktil vositalardan foydalanish: Zaif eshituvchi bolalar uchun imo-ishora tili, daktilema, piktogrammalar, grafik belgilar kabi vizual vositalar eshituv idrokini mustahkamlashda samarali bo'ladi. Shuningdek, taktil stimulyatorlar orqali sezgi organlari faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

² L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya. -Toshkent-2013. B.-76.

³ X.J.Kalbaeva. Maktabgacha surdopedagogika: Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi. Oliy ta'lim muassasa talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2007. B.-8.

⁴ G.S.Abdullayeva, O.S.ishmatova. Korreksion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish.(monografiya). Toshkent-2022. B.-24.

3. Interfaol metodlar: O'yinli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, dramatizatsiya, chaynvordlar kabi interfaol metodlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, eshituv idrokini faollashtiradi.

4. Muhitni moslashtirish: Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona akustik jihatdan moslashtirilgan, shovqinsiz va yorug' bo'lishi kerak. Bu bolalarning diqqatini jamlashiga va eshituv faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalar pedagogik jarayonga jalb qilinib, uy sharoitida ham mashg'ulotlarni davom ettirish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi kerak. Bu bolalarning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun turli metodik yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlar, bola o'rganish jarayonini maksimal darajada samarali qilishni maqsad qiladi.

Birinchidan, ko'rish va eshitish organlarining integratsiyasi asosida ishlovchi metodlar qo'llaniladi. Masalan, vizual va audiovizual materiallardan foydalanish, signallarni takrorlash va bolaga eshitilgan nutqni qayta tinglash imkoniyatlarini yaratish.

Ikkinchidan, "suportiv" texnologiyalar (kutubxonalar, akustik tizimlar, maxsus qurilmalar) yordamida eshitish qobiliyatini yaxshilash mumkin. Pedagoglar uchun esa, bola bilan muloqot qilishda maxsus til va so'zlashuv texnikalari mavjud⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.S.Abdullayeva, O.S.ishmatova. Korreksion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish.(monografiya). Toshkent-2022. B.-24.
2. Белая Н. А., Речицкая Е. Г. Особенности коммуникативной компетентности слабослышащих детей 6–7 лет // European Social Science Journal. – 2012. – № 10-2 (26). – С. 113–119
3. X.J.Kalbaeva. Maktabgacha surdopedagogika: Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi. Oliy ta'lim muassasa talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2007. B.-5.
4. M.M.Kodirov, A.Z.Yuldasheva. Zaif eshituvchi bolalar eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan pedagogik ishlar. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. B.-54.
5. Z. N. Mamarajabova. Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) dis. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2020. B.-25.
6. L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya. -Toshkent-2013. B.-76.

⁵ M.M.Kodirov, A.Z.Yuldasheva. Zaif eshituvchi bolalar eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan pedagogik ishlar. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. B.-54.

7. <https://infourok.ru>.
8. <http://knigi.link/spetsialnaya-pedagogika.html>.
9. <https://iite.unesco.org>.

